

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ELEKTRON TA'LIM RESURLARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI

Niyozqulov Mirjalol Baxtiyorovich

P.f.f.d (PhD), Qarshi xalqaro universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dotsenti.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF USING ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCES IN PRIMARY EDUCATION

Mirjalol Baxtiyorovich Niyozqulov

*Ph.D. (P.f.f.d), Associate Professor, Department of Social and Humanitarian Sciences, Qarshi
International University*

Annotatsiya: Ushbu tezisdá boshlang'ich ta'limda elektron ta'lim resurslaridan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadi. Unda ETR kontentining didaktik asoslari, interaktiv va multimedíya elementlarining o'quv jarayoniga ta'siri, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi va o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, elektron resurslardan samarali foydalanish dars sifatini oshiradi, o'quvchilarda motivatsiya va mustaqil o'qish ko'nikmalarini rivojlantiradi hamda pedagoglarning innovatsion yondoshuvlarini kuchaytiradi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, elektron ta'lim resurslari, interaktiv o'qitish, pedagogik tayyorgarlik, multimedíya vositalari.

Abstract: This thesis examines the theoretical and practical aspects of using electronic educational resources (EER) in primary education. It analyzes the didactic foundations of EER content, the impact of interactive and multimedia elements on the learning process, teachers' methodological readiness, and the role of EER in developing students' 21st-century skills. Research shows that effective use of electronic resources enhances lesson quality, fosters students' motivation and independent learning skills, and strengthens teachers' innovative approaches.

Keywords: primary education, electronic educational resources, interactive teaching, pedagogical readiness, multimedia tools

Zamonaviy ta'lim tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish, xususan elektron ta'lim resurslaridan (ETR) foydalanish ta'lim sifatini oshirish hamda o'quvchilarni raqamli dunyoga tayyorlash uchun muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda boshlang'ich ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish maqsadida o'qituvchilardan kompyuter va turli zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish talab qilinadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmonining 1-ilovasida "Ta'lim tizimini rivojlantirishning 2030 yilgacha bo'lgan konsepsiyasi" ham ta'lim muassasalarida raqamli texnologiyalarni keng joriy qilishga alohida urg'u berilgan [1]. COVID-19 pandemiyasi ta'lim-tarbiya jarayonini majburiy ravishda onlayn rejimga o'tkazdi va shu bilan o'qituvchilarga va o'quvchilarga elektron

ta'lim vositalari va platformalaridan unumli foydalanishni o'rganish zarurligini namoyish etdi. Shu munosabat bilan, boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun elektron o'quv-resurslardan foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etish hozirgi sharoitda dolzarb ilmiy-pedagogik masala hisoblanadi.

Elektron ta'lim resurslari (ETR) zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bazasida yaratilgan, interaktiv va multimediya komponentlarga ega ta'lim materiallari bo'lib, ular turli obyektlarni grafik, matn, audio, video va animatsion ko'rinishda taqdim etish imkonini beradi. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024/2025-o'quv yili boshida O'zbekistondagi 10943 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarda o'quvchilari soni 6 million 776,3 ming nafarni tashkil etdi. Ushbu maktablarning 28,4 foizi internet tarmoq'iga ulanmagan. Aniqlangan muammolardan kelib chiqib, mutaxassislar umumta'lim tizimidagi sifatni yaxshilash uchun har tomonlama yondashish zarurligini takidlashadi.

Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, raqamli ta'lim resurslari - bu kompyuterda ko'rgazmali obrazlar va multimedia elementlari yordamida ta'lim ma'lumotlarini yetkazish vositasidir; ularning qo'llanilishi o'quv jarayonida barcha idrok qilish kanallarini bir vaqtda ishga solib, darsni samaraliroq o'tkazishga yordam beradi.

S.D.Karakozovning fikricha ta'limni axborotlashtirish - ommaviy kommunikatsiya va kompyuter tarmoqlari bazasida yagona axborot-ta'lim makonini yaratish jarayoni bo'lib, uning tayanch kategoriyasi - axborot-ta'lim tizimlari, uni yaratish tamoyillari esa integrativ va gumanistik asosga ega. Axborot jamiyati doirasida, bir tomondan, mutaxassis faoliyatining asosiy shakllari va usullari o'zgaradi, bu muqarrar ravishda uning kasbiy tayyorgarligi mazmunining o'zgarishga olib keladi. Boshqa tomondan, uni qurshab turgan ijtimoiy-iqtisodiy va ta'lim muhiti o'zgaradi, ta'lim mazmunini o'zgartirish talablari bilan birgalikda mutaxassisni tayyorlash shakllari, vositalari va usullarining o'zgarishiga olib keladi. Bularning barchasi mutaxassislarni, shu jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ham kasbiy tayyorlash tizimi uchun yangi rivojlanish modelini izlashni talab qiladi [2].

Pedagogik tadqiqotlarda elektron didaktik yordam (elektron darsliklar, video-ma'ruzalar, interaktiv testlar, virtual laboratoriya va boshqalar majmuasi) tushunchasi keng qo'llaniladi. M.Q. Pirovaning fikricha, elektron ta'lim materiallari darsni interaktiv va qiziqarli qilish uchun darslik, video dars, o'yin va simulatsiyalar orqali ko'rgazmali o'qitish imkonini beradi. U ta'kidlaydiki, elektron didaktik vositalarning interaktivligi o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularning faol ishtirokini ta'minlaydi [7]. Bundan tashqari, ETR lar o'quvchilarga mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

Elektron resurslar o'qituvchilarning kasbiy va metodik tayyorgarligini ham boyitadi. M.Q.Pirova ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy qilish o'qituvchilardan yangi pedagogik uslublarni egallashni ham talab qilishini qayd etadi [7]. Bu manbaga ko'ra, ETR lar yordamida pedagoglar darsni interaktiv tashkil etish, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini inobatga olish va o'z malakasini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xuddi shu yo'nalishda Lukmonova bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining elektron resurslardan foydalanishga tayyorligini shakllantirish muammosini o'rganadi[4]. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pedagogik hamjamiyat elektron o'quv materiallarini sifatli yaratish,

o'qituvchilarni malakasini oshirish va AKT infratuzilmasini rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratishi zarur.

A.E.Rustamova va hamkasblari onlayn ta'limning o'quvchilar uchun keltiradigan pedagogik afzalliklarini o'rgandi. Ular ta'kidlaydiki, elektron o'qish XXI asr ko'nikmalarini (masalan, kommunikatsiya va hamkorlik ko'nikmalari, media savodxonligi) rivojlantirishga yordam beradi [8]. Bu holat boshlang'ich maktab o'quvchilarini kelajakda zamonaviy talablarga mos yetuk shaxs sifatida shakllantirishda ETR larning ahamiyatini oshiradi.

Ushbu tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, amaliy tajribalarni o'rganish hamda boshlang'ich sinf o'qituvchilari fikrlarini o'rganishga yo'naltirilgan so'rovlar o'tkazish usullari qo'llanildi. Nazariy asos sifatida erta ta'limda raqamli texnologiyalarni tatbiq etish bo'yicha nashrlar tahlil qilindi. Amaliy qismda esa boshlang'ich sinf o'qituvchilarining elektron resurslardan foydalanish tajribalari, shuningdek o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi va natijalari o'rganildi. Shu bilan birga, onlayn platformalar va elektron darsliklarning mazmun-mohiyati ham tahlil qilingan.

Natijalar va muhokama

Adabiyotlarni tahlil qilishdan ko'rinib turibdiki, elektron ta'lim resurslaridan foydalanish boshlang'ich ta'lim jarayonini interaktiv qilish va darsni yanada qiziqarli o'tkazish imkonini beradi. Masalan, bir tadqiqotda multimedia vositalari o'quvchilarning ma'lumotga bo'lgan qiziqishini va o'qituvchi bilan muloqotni yaxshilashda muhim rol o'ynashi aniqlangan[6]. Ushbu resurslar o'quv dasturiga mos ravishda ta'limni boyitib, o'quvchilarga turli usullar orqali bilim egallashni taklif etadi. Shu bilan birga, boshlang'ich sinf o'quvchilari kompyuter va texnologiya tushunchalariga ega bo'lmasa, media vositalari orqali ham o'qitish muammolarini bartaraf etishga yordam beradi.

Elektron ta'lim vositalari o'qituvchilarning pedagogik uslublarini ham boyitadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ETR lardan foydalangan holda darsni tuzish o'qituvchilarga yangi pedagogik yondoshuvlarni egallash va individual yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi. Misol uchun, interaktiv testlar va o'yinlar o'quvchilarga ma'lumotni mustahkamlashni, elektron darslik va video darslar esa mavzularni chuqurroq o'rganishni ta'minlaydi. Bu esa dars samaradorligini oshirish bilan bir qatorda, o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshiradi.

Tadqiqot davomida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, elektron resurslardan foydalangan holda o'qish jarayoni nafaqat o'quvchilarda motivatsiyani oshiradi, balki ularni mustaqil o'qishga va tanqidiy fikrlashga rag'batlantiradi. Bunda o'qituvchilarning digital savodxonligi muhim ahamiyatga ega bo'lib, uni oshirish uchun malaka oshirish kurslari va metodik ko'rsatmalar tayyorlash lozim. Shu bilan birga, olingan natijalar PQ-5712 va "Raqamli O'zbekiston-2030" kabi strategiyalar mazmun-mohiyatini amaliyotga tatbiq etishda ham o'rganishlar muhim ekanini ko'rsatadi.

Boshlang'ich ta'limda elektron ta'lim resurslaridan foydalanish jarayonida nazariy va amaliy yondoshuvlar uyg'unligi talab etiladi. Nazariy nuqtai nazardan, ETR kontentining didaktik asoslari - ular o'quv maqsadlari va bolalarning psixo-pedagogik xususiyatlariga mos bo'lishi, shuningdek multimediya va interaktiv elementlarni o'zida mujassamlashtirishi - muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy jihatdan esa ETR lardan foydalanish darslarni boyitish orqali o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalarini (kompyuter savodxonligi,

kommunikatsiya va ijodiy fikrlash) rivojlantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, elektron vositalardan samarali foydalanish bosh sinfda dars jarayonining sifatini oshirishga xizmat qiladi va o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini kuchaytiradi.

Kelajakda elektron ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish bo'yicha innovatsiyalarni joriy qilish, pedagoglarni masofaviy o'qitish uslublari bilan tanishtirish hamda texnologik infratuzilmani takomillashtirish dolzarb bo'lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, 29 aprel). O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida (PF-5712-sonli Farmon). Lex.uz. <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>
2. Босова, Л.Л. Подготовка младших школьников в области информатики и ИКТ: опыт, современное состояние и перспективы / Л.Л. Босова. - М.: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2009. - 271 с.
3. Djailov B. Elektron didaktik materiallar va pedagogik texnologiyalar. - T.: Fan, 2022.
4. Lukmonova S.G. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining raqamli ta'lim resurslaridan foydalanishga tayyorligini shakllantirish. - Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 2022, №1. - B.221-226.
5. Mavlonova R. Pedagogik texnologiyalar va elektron didaktik ta'minot: metodik yondoshuvlar. - T.: Maqsad, 2020.
6. Nurmatov Z.O., Chorshamiyeva O.N., Pirimova F.A. Boshlang'ich sinflarni o'qitishda multimedia vositalaridan foydalanish va uning samarasi. - Universal Journal of Social Sciences and Research, 2023, Vol.1, №9. - B.1322-1330.
7. Pirova M.Q. Enhancing electronic didactic support for the development of methodological readiness of future primary school teachers. - Web of Teachers: Inderscience Research, 2025, Vol.3, №4. - B.66-69.
8. Rustamova A.E., Ergasheva M.E., Dagarov S.M., Matqurbonova R.Z., Sayfullayeva S.I. Theoretical and methodological foundations of online education in primary school foreign language teaching. - Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2023, Vol.14, №3. - B.1284-1290.
9. Sodiqov M. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli malakasini rivojlantirish masalalari. - T.: Ma'naviyat, 2021.
10. Tashkenbayeva N. Innovatsion uslublari va elektron didaktik materiallar. - Farg'ona: Xorazm, 2023.
11. Yusupov A. E-ta'limning bo'lajak pedagoglarni tayyorlashdagi roli. - T.: O'zbekiston, 2024.
12. UNESCO. Technology and learning for early childhood and primary education. - Paris: UNESCO, 2020.